

**BOB III. JAMIYATIMIZDA AYOLLARNING HUQUQIY MAVQEINI****MUSTAHKAMLASHNING MUAMMOLARI**

**Yuldasheva Xurshidabonu Muhammadovna. Andijon davlat pedagogiga instituti.**

**Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (huquq ta'limi). 2-kurs magistranti**

**3.1. Yangi O'zbekistonda ayollarning huquqiy maqomini takomillashtirishga ta'sir qiluvchi omillar.**

Mustaqillik yillarida demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishni o'zining pirovard maqsadi sifatida tanlagan O'zbekiston Respublikasida ayollarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy hayotdagi mavqeini yuksaltirish, davlat boshqaruvidagi rolini oshirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar belgilanib, ayollarga oqilona munosabat masalasiga ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, davlat hokimiyatining oliy organi - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasida ayollar uchun alohida kvota ajratilgan bo'lib (30 %), ushbu huquqdan ular samarali foydalanmoqdalar. Ayollar orasidan belgilangan kvotadan ortiq darajada deputatlar, senatorlar saylanmoqda, vazirlar va xokimlar yetishib chiqmoqda. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 150 ta deputatdan 48 tasini ayollar, ya'ni 32 %, Senatda 100 ta senatordan 25 tasini ayollar, ya'ni 25 %, mahalliy kengashlarda esa barcha deputatlarning 31 % ni ayollar tashkil etmoqda. Bundan tashqari, ayollarimiz davlat boshqaruvining turli sohalarida, ayniqsa ta'lim, sog'likni saqlash, xususiy tadbirkorlik tizimida faol ishtirok etib, erkaklar bilan yonma-yon turib xalq farovonligini oshirish, barkamol avlod tarbiyasi, huquqiy demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda unumli mehnat qilib kelmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan davlatimizda ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qator qonun hujjatlari va davlat dasturlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator normalarida ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligi o'rnatildi. Xususan, Asosiy qonunning 18-moddasida "barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar", 63-moddasida esa "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi" mazmunidagi qoidalar mustahkamlandi.



O‘zbekiston Respublikasining Oila va Mehnat kodekslarida ham ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanligini belgilovchi qator qoidalarni ko‘rish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilangan.

O‘zbekistonda bugungi kun yangi islohotlar bosqichida gender tengligini ta‘minlashga xizmat qiladigan ko‘plab davlat dasturlari, xususan, xotin-qizlar rolini oshirish yuzasidan Milliy harakat dasturi qabul qilindi, BMTning “Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasini amalga oshirish va monitoringini olib borish bo‘yicha milliy mexanizm tizimi yaratilib, ushbu xalqaro Konvensiya talablari asosida O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari qabul qilindi. Ushbu qonun va dasturlarda ayollarga turli imtiyozlar berish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar salomatligini saqlash, ularning mehnatini yengillashtirish masalalariga jiddiy e‘tibor berildi.

Ijtimoiy hayotning eng muhim dolzarb masalalarini hal etish maqsadida yillarga nom berishda asosiy e‘tibor oila, ayol va bolalar manfaatini himoya qilishga qaratilmoqda. Xususan, 1998-yil - Oila yili, 1999-yil - Ayollar yili, 2000-yil - Sog‘lom avlod yili, 2001-yil - Onalar va bolalar yili, 2010-yil - Barkamol avlod yili, 2012-yil - Mustahkam oila yili, 2013-yil - Obod turmush yili, 2016-yil “Cog‘lom ona va bola yili”, 2017-yil - “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”, 2021-yil - “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, deb nomlanishi fikrimizning dalilidir.

Davlatning hayotida gender tengligining o‘rni kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida ayollarning erkaklar bilan tengligi (gender tengligi)ni ta‘minlash, ularni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, tazyiq va zo‘ravonlikka duchor qilmaslik, tabiiy huquqlarini cheklamaslik dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham bu muammo o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. O‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy holati, dunyoviyliigi va demokratik rejimidan kelib chiqqan holda dunyoning turli davlatlarida gender tengligi muammosi hanuz turlicha ko‘rinishga ega.



Shuning uchun gender tengligini ta'minlashga bugungi kunda xalqaro miqyosda jiddiy e'tibor qaratilib, ushbu muammoni hal etishga qaratilgan bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ushbu xalqaro hujjatlarda milliy davlatlarga o'z hududida gender tengligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish, o'z yurisdiksiyasi doirasida gender tengligini ta'minlashga bag'ishlangan qonunlarni qabul qilish, amaliyotda ularning ijrosini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillarida gender tengligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oila, Mehnat kodekslari, 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari qabul qilinib, ularda erkaklarning ayollar bilan teng huquqliligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi belgilab berildi.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayollarni erkaklar bilan teng huquqli ekanligini o'rnatish masalasiga alohida e'tibor qaratilib, uning uchta moddasi bevosita gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida "barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar", 46-moddasida "Ayollar va erkaklar teng huquqlidirlar", 63-moddasida "Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", mazmunidagi qoidalar mustahkamlangan.

Ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham batafsil tartibga solingan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshirilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ayollarni ishga olishni rad etish mumkin emasligi, bir xil mehnat uchun bir xil haq to'lash kerakligi, erkaklar va ayollar



ijtimoiy masalalarda bir xil huquqqa ega ekanligi, mehnat munosabatlarida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi kabi gender tengligini ta‘minlashga bag‘ishlangan qoidalar o‘rin egallagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni gender tengligini ta‘minlashning maxsus huquqiy asoslaridan biridir. Ushbu qonunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta‘minlashning asosiy prinsiplari, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash talablari, davlat organlari rahbarlari lavozimiga kadrlar zaxirasini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda teng huquqqa egaligi, mehnat munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, ta‘lim olish huquqini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratilishi kabi masalalar tartibga solingan.

Gender tengligini ta‘minlashning maxsus huquqiy asoslaridan biri O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunidir. Ushbu qonunda gender tengligini buzishga olib keluvchi tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi ayollarning huquqlari, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga chek qo‘yishning umumiy chora-tadbirlari kabi masalalar tartibga solingan.

Gender tengligining umumiy tavsifiga to‘xtalganda, uning tushunchasini aniqlash lozim bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida gender tengligiga tegishli asosiy tushunchalar ko‘rsatilgan. Unga binoan, gender deganda, xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta‘lim hamda ilm-fan



sohalarida namoyon boʻladigan ijtimoiy jihati tushuniladi. Demak, ushbu moddada keltirilgan qoidaga koʻra, xotin-qizlar va erkaklar jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, yaʼni siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, taʼlim sohalarida bir xil huquqqa ega boʻlishlari kerak.

Gender tengligi tushunchasini aniqlashda yana bir qator tushunchalarga aniqlik kiritish kerak boʻladi. Shunday tushunchalardan biri jins boʻyicha bevosita kamsitishdir. Jins boʻyicha bevosita kamsitish deb, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash, shu jumladan oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatlari tufayli kamsitish, shuningdek shahvoniy shilqimlik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq toʻlashga aytiladi. Jins boʻyicha bilvosita kamsitish deganda esa, bir jinsdagi shaxslarni boshqa jinsdagi shaxslarga nisbatan noqulayroq holatga tushirib qoʻyadigan vaziyatlar, holatlar yoki mezonlarni yaratish, shu jumladan gender tengsizlikni ommaviy axborot vositalari, taʼlim, madaniyat orqali targʻib etish, muayyan jinsdagi shaxslar uchun salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin boʻlgan shart-sharoitlar yoxud talablar belgilash tushuniladi.

Gender tengligi tushunchasini ochib berishda unga yondosh boʻlgan yana bir qator tavsiflarga ham aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Bu kabi tushunchalar Oʻzbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida” gi qonunida bayon qilingan boʻlib, unda xotin-qizlarni nisbatan tazyiq va zoʻravonlik oʻtkazishga doir asosiy tushunchalar berilgan. Chunonchi, ushbu qonunning 3-moddasida koʻrsatilishicha, zoʻravonlik deb, xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy taʼsir oʻtkazish yoki bunday taʼsir oʻtkazish choralarini qoʻllash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sogʻligʻi, jinsiy daxlsizligi, shaʼni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan gʻayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)ga aytiladi.

Ushbu moddaga koʻra, jinsiy zoʻravonlik deganda, xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zoʻravonlik shakli, shuningdek zoʻrlik ishlatish yoki zoʻrlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga



nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash tushuniladi.

Jismoniy zo‘ravonlik esa, xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta‘sir o‘tkazish yoki bunday ta‘sir o‘tkazishning o‘zga choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shaklidir.

Shuningdek, iqtisodiy zo‘ravonlik deganda, xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta‘minlashga bo‘lgan huquqi, mulk huquqi, ta‘lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat (harakatsizlik) tushuniladi.

Ruhiy zo‘ravonlik deganda, xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) tushuniladi. Ushbu qonunda tazyiq tushunchasi ham ochib berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tazyiq deganda, sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik tushuniladi.

Yuqorida aytilgan tushunchalardan kelib chiqib, gender tengligi deganda, xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalari, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-ma‘naviy, madaniyat, ta‘lim sohalarida, hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda, bolalar tarbiyasi, mehnat, oilaviy munosabatlarda teng imkoniyat yaratish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish, himoya qilish hamda chek qo‘yish, jins bo‘yicha kamsitish, jinsiy, iqtisodiy, ruhiy zo‘ravonlik kabi holatlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tush

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Ahmadxo‘jaev H. T., Mirdadaev K. M Ayol– jamiyat , Ilm Ziyoy,–Toshkent, 2014.



2. Atajonova D.S. Aellar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mas`ul shaxslar mexnatini xuquqiy tartibga solishning xususiyatlari. Yurid.fan.buyicha fals.dok(PHD) dis.avto-ref.- Toshkent-2018-yil.
3. O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Xotin - qizlar huquqlarini ta`minlash hamda ularni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish bo`limi to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi 2022-yil 10-martdagi 263-sonli buyrug`i.
4. O`zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi «mahalla va oila» ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori (2020-yil 10-iyun).
5. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T. Toshkent. 08.12.1992 yil.
6. O`zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`g`risida»gi 2019-yil 2-sentyabrdagi O`RQ-562-sonli qarori
7. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2018-yildagi «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo`llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to`g`risida»gi PQ-4235-Qarori.
8. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida»gi 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son Qarori.
9. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi «Oila va xotin - qizlar davlat qo`mitasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi PQ – 146 - son Qarori.
10. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo`yicha milliy dasturi.
11. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz/docs/35869/>.
12. O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to`plami, 2004 yil, 21 – son, 251 – modda.
13. Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 14.03.2020 y., 07/20/4862/1385-son.
14. «Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida»gi 2019-yil 2-sentyabrdagi O`RQ-561-sonli Qonuni.
15. Ahmadxo`jaev H. T., Mirdadaev K. M Ayol– jamiyat , Ilm Ziyo,–Toshkent, 2014.



16. Atajonova D.S. Aellar va oilaviy vazifalarni bajarish bilan mas`ul shaxslar mexnatini xuquqiy tartibga solishning xususiyatlari. Yurid.fan.buyicha fals.dok (PHD) dis.avtoref.- Toshkent-2018-yil.
17. Norboyeva T.K.Sos.fan.dok....dis Uzbekistonda xotin kizlarni ijtimoiy ximoya qilish tizimi samaradorligini oshirishning innovatsion modeli.UZMU. Toshkent. 2020
18. Nasrullayeva X.Uzbekistonda xotin-kizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy taxlili Falsafa .fan.nomz...dis.-Toshkent-2000-B137
19. Soatova Sh. Gender tenglikka erishishning ahamiyati. 15.08.2020 4.
20. Abashidze A X Borba OON s diskriminatsiyey // Diskriminatsiya vne zakona Sb dok /Otv red A Ya Kapustin M.2003 S 15 ‘ Sm Kartashkin V A Prava cheloveka v mejdunarodnom i vnutrigosudarstvennom prave M,1995 S 34-35 5
21. Akimova Y.A. Konstitutsionniy prinsip ravnopraviya mujini i jenshini Pd. M., 2005. 174 s.
22. Lynmarie Sardinha, Mathieu Maheu-Giroux, Heidi Stokl, Sarah Rachel Meyer, Claudia Garcia-Moreno. Global, regional and national prevalence estimates of physical or sexual or both intimate partner violence against women in 2018.



ILMIY NASHRLAR MARKAZI